TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2026-yil 14-oktabr

**Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi**
**2-bosqich Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi talabalariga 3-semestr uchun**
**« Pedagogik aksiologiya » fanidan yakuniy nazorat savollari**
**Imtihon shakli: yozma-og'zaki**

| N | 1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi | 2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi | 3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi | 4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi | 5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | Aksiologiya atamasining kelib chiqishi va ilmiy mazmunini ta’riflang. (axios, logos, qadriyatlar nazariyasi) | Nima sababdan ta’limni faqat bilim berish jarayoni deb baholash yetarli emasligini tushuntiring. (insonparvarlik, qadriyatli munosabat, tarbiya) | Obyektiv-idealistik, subyektiv-idealistik va naturalistik aksiologik konsepsiyalarning qadriyatga munosabatini qiyosiy tavsiflang. (ideal mohiyat, subyektiv baholash, ehtiyoj) | Pedagogik aksiologiyaning ilmiy, amaliy va tajribaviy jihatlaridan biri e’tibordan chetda qolsa, qadriyatli tarbiya tizimida qanday metodologik nomutanosiblik yuzaga kelishini tahlil qiling. | Talabalar nazariy savollarga to‘g‘ri javob berib, guruhiy ishda bir-birining fikrini hurmat qilmasa, ushbu holat uchun aksiologik ong–munosabat–xulq modeli asosida pedagogik yechim ishlab chiqing. |
| **2** | Qadriyat tushunchasining pedagogik mazmunini izohlang. (ahamiyat, baholash mezoni, ma’naviy me’yor) | Aksiologik ong, aksiologik munosabat va aksiologik xulq-atvor bir-birini qanday to‘ldirishini izohlang. (bilish, qadrlash, faoliyat) | Aksiologik, madaniy va gumanistik metatamoyillar o‘qituvchi tayyorlashda qanday metodologik vazifa bajarishini ochib bering. (qadriyatli yondashuv, umuminsoniy madaniyat, insonparvarlashtirish) | Texnokratik va insonparvarlikka asoslangan ta’lim yondashuvlari o‘rtasidagi tafovutni pedagogik aksiologiya nuqtayi nazaridan asoslang. | Ta’lim muassasasida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori, ammo talabalar mustaqil fikr bildirishdan cho‘chiydi. Pedagogik aksiologiya maqsad va funksiyalariga tayangan holda takomillashtirish dasturini asoslang. |
| **3** | Pedagogik aksiologiya qanday pedagogik bilim sohasi hisoblanadi? (inson, ta’lim, ta’limiy qadriyat) | Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik aksiologiyaning dolzarbligi qanday ortishini tushuntiring. (qadriyatlar tizimi, mas’uliyat, zamonaviy ta’lim) | Pedagogning aksiologik kompetentligi tarkibidagi kognitiv, emotsional-aksiologik va faoliyatli komponentlarni tizimli izohlang. (bilim, e’tiqod, amaliy xulq) | Qadriyatni tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida izohlovchi yondashuv bilan subyektiv baholashga asoslangan qarashning ta’lim uchun imkoniyatlari va cheklovlarini solishtiring. | Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash dasturiga qadriyatli yondashuvni kiritish uchun maqsad, ta’lim usuli, faoliyat natijasi va refleksiya mezonlarni taklif eting. |
| **4** | Pedagogik aksiologiyaning predmeti va asosiy maqsadini ayting. (aksiologik ong, munosabat, xulq-atvor) | Pedagogik aksiologiyaning baholovchi, yo‘naltiruvchi va me’yoriy funksiyalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlang. (baholash mezoni, qadriyatlar ierarxiyasi, axloqiy me’yor) | Pedagogik aksiologiyaning nazariy va amaliy vazifalarini o‘zaro aloqadorlikda tavsiflang. (tarixiy-pedagogik tahlil, aksiologik asoslar, ta’lim strategiyasi) | Pedagogda qadriyatlar haqidagi bilimlar yetarli bo‘lib, amaliy xulq-atvorida aks etmasa, aksiologik kompetentlikning qaysi jihatlari izdan chiqishini tahlil qiling. | Ikkita darsdan birida faqat ma’lumot yodlash, ikkinchisida bilimni axloqiy tanlov bilan bog‘lash ustuvor. Ushbu darslarni ilmiy-amaliy aksiologik mezonlar asosida baholang. |
| **5** | Pedagogik aksiologiya mazmunining uch asosiy jihatini sanang. (ilmiy, amaliy, tajribaviy) | Ta’lim oluvchini faol subyekt sifatida e’tirof etishning pedagogik ahamiyatini tushuntiring. (shaxs qadr-qimmati, mustaqil tanlov, ishtirok) | Aksiologik yondashuvni ta’limga joriy etish mexanizmlarining mantiqiy izchilligini ko‘rsating. (qadriyatli muhit, interfaol metod, refleksiya, integratsiya) | Qadriyatlarga yo‘naltirilgan ta’lim muhitining samaradorligini faqat deklarativ fikrlar bilan baholash nega ilmiy jihatdan yetarli emasligini dalillang. | Pedagogik jamoada kasbiy qadriyatlar turlicha talqin qilinmoqda. Umumiy aksiologik mezonlarni shakllantirishni ilmiy asoslang |
| **6** | Pedagogik qadriyat tushunchasiga ta’rif bering. (ta’lim-tarbiya, me’yor, ideal, maqsad) | Pedagogik qadriyatlar tizimida ijtimoiy, kasbiy-jamoaviy va shaxsiy qatlamlar qanday bog‘langanini tushuntiring. (jamiyat, pedagogik muhit, shaxsiy pozitsiya) | Pedagogik qadriyat guruhining mazmuni va farqlovchi belgilarini bayon eting. (ijtimoiy-siyosiy, intellektual, axloqiy, kasbiy-pedagogik) | Pedagogik qadriyatlar tizimining barqarorligi va davr o‘zgarishiga mos ravishda yangilanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy dalillar va pedagogik misollar bilan asoslang. | Sinfda o‘quvchilarning faolligi notekis va ayrimlari jamoaviy ishlarda qatnashmayapti. Teng imkoniyat, hamkorlik va mas’uliyat qadriyatlariga tayangan holda pedagogik yechim, uni amalga oshirish bosqichlari hamda natijani baholash mezonlarini ishlab chiqing. |
| **7** | Pedagogik qadriyatlar tizimi deganda nima tushuniladi? (ijtimoiy munosabatlar, o‘zaro aloqadorlik, tizim) | Pedagogning o‘zini namoyon qilish va ijodiy individuallik ehtiyojlari kasbiy qadriyatlar sifatida nima uchun muhimligini izohlang. (kasbiy nufuz, qobiliyat, rivojlanish) | Pedagogik jarayonning qadriyatga asoslangan besh tarkibiy unsurini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qiling. (Maqsad, vosita, munosabat, sifat, bilish) | Pedagogning pragmatik ehtiyojlari bilan ta’lim oluvchiga g‘amxo‘rlik qilish qadriyati to‘qnashganda qadriyatlar ierarxiyasini qanday belgilash mumkinligini asoslang. | Yangi o‘qituvchi kasbiy nufuzni birinchi o‘ringa qo‘yib, hamkorlik va g‘amxo‘rlikka yetarli e’tibor bermaydi. Shaxsiy-pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish dasturini asoslang. |
| **8** | Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlarning mazmunini ayting. (ijtimoiy g‘oya, qoida, an’ana) | Ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlarning o‘zaro ta’sirini aniq pedagogik misol bilan tushuntiring. (ijtimoiy me’yor, shaxsiy motiv, kasbiy qaror) | Ijtimoiy-pedagogik, kasbiy-jamoaviy va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tizimli tahlil qiling. (Ijtimoiy me’yor, pedagogik muhit, shaxsiy maqsad, kasbiy uyg‘unlik) | Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar va o‘qituvchining individual ideallari o‘rtasidagi muvofiqlik buzilishining ta’lim muhitiga ta’sirini tahlil qiling. | Pedagogning bir semestrlik kasbiy rivojlanish dasturini loyihalang. Unda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy qadriyatlar, ijodiy faoliyat, axborot texnologiyalari hamda o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘nalishlarini uyg‘unlashtiring; bajarilishini monitoring qilish mezonlarini belgilang. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **9** | Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar qanday tarkibiy qismlardan iborat? (motiv, maqsad, ideal, dunyoqarash) | Bilishga oid va axloqiy qadriyatlarning pedagogik faoliyatda bir-birini to‘ldirishini izohlang. (bilishga ehtiyoj, burch, mas’uliyat) | Individual-shaxsiy pedagogik qadriyatlarning besh yo‘nalishini bir tizim sifatida tavsiflang. (o‘zini namoyon qilish, muloqot, ijodiy individuallik, ishga safarbarlik, pragmatik ehtiyoj) | Pedagogik maqsadlar aniq, ammo ularni amalga oshirish vositalari o‘quvchi qadr-qimmatiga zid bo‘lsa, mazkur holatni Slastyonin tasnifi asosida baholang. | Dars loyihasi uchun maqsadli, vositali, munosabatli, sifatga oid va bilishga oid qadriyatlarning har biriga mos kuzatiladigan natija mezonini ishlab chiqing. |
| **10** | Ta’limiy qadriyatlarning asosiy yo‘nalishlarini sanang. (ma’naviy-axloqiy, estetik, intellektual, ijodiy) | Maqsadli qadriyatlar nima sababdan vositali qadriyatlarga yo‘nalish berishini tushuntiring. (ta’limiy maqsad, metod, faoliyat vositasi) | Ta’limiy qadriyatlarning ahamiyatlilik guruhlarida nazariy-pedagogik, innovatsion va o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘nalishlarining o‘rnini izohlang. (nazariya, innovatsion texnologiya, kasbiy o‘sish) | Ta’limiy qadriyatlarni faqat kasbiy mahorat bilan cheklab qo‘yishning ijtimoiy, ma’naviy va ijodiy rivojlanish uchun oqibatlarini tahlil qiling. | Pedagogik jamoaning qadriyatlar tizimini o‘rganish uchun ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy qatlamlarni qamrab oluvchi tahliliy jadval konsepsiyasini tuzing hamda tanlagan mezonlaringizni asoslang. |
| **11** | Aksiologik tafakkurning tarixiy rivojlanishidagi asosiy davrlarni sanang. (Qadimgi Sharq, antik davr, o‘rta asrlar, Sharq uyg‘onishi, XIX–XX asrlar) | Forobiyning fozil jamiyat haqidagi qarashlarida ilm va adolat qanday o‘rin tutishini tushuntiring. (fozil inson, aql, ijtimoiy hamjihatlik) | Qadimgi Sharq, antik G‘arb va o‘rta asr aksiologik qarashlaridagi yetakchi qadriyatlar tizimini qiyoslang. (ezgulik, haqiqat, go‘zallik, e’tiqod) | Sharq mutafakkirlarining komil inson haqidagi tasavvurlarini zamonaviy shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning qadriyatli paradigmasi bilan qiyosiy tahlil qiling. | Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun Forobiy, Beruniy va Ibn Sino g‘oyalarini birlashtirgan qadriyatga yo‘naltirilgan dars loyihasini ishlab chiqing hamda tanlagan mezonlarni asoslang. |
| **12** | Qadimgi Sharq tafakkurida qanday axloqiy qadriyatlar ustuvor bo‘lgan? (ezgulik, adolat, qalb tarbiyasi, o‘z-o‘zini takomillashtirish) | Beruniy qarashlarida bilimning amaliy qiymati va haqiqatparvarlik o‘rtasidagi aloqani izohlang. (ilm, foydali faoliyat, adolat) | Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning inson kamolotiga doir qarashlarini umumiy va farqli pedagogik mezonlar asosida tavsiflang. (aql, ilm, adolat, foydali odat) | Forobiyning ijtimoiy hamjihatlik g‘oyasi bilan Beruniyning haqiqatparvarlikka urg‘u berishi pedagogik maqsadlarni qanday boyitishini asoslang. | O‘quvchilar ilm olishni faqat shaxsiy manfaat bilan bog‘layotgan vaziyatda Xorazmiy va Ulug‘bekning ilm qadriyati haqidagi yondashuvlariga tayanib tarbiyaviy yechim taklif eting. |
| **13** | Suqrot va Aflotun qarashlarida ta’lim bilan bog‘langan qadriyatlarni ayting. (haqiqat, ezgulik, go‘zallik, komillik) | Ibn Sino talqinida hamkorlik, adolat va foydali odatlarning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring. (o‘zaro yordam, me’yor, ijobiy xulq) | Yassaviy va Naqshband nomlari bilan bog‘liq ma’naviy tarbiya yo‘nalishining aksiologik mexanizmini tushuntiring. (o‘zini anglash, qalb tarbiyasi, halollik, mehnatsevarlik) | Ibn Sinoning foydali odatni tarbiyalash qarashlari va Navoiy talqinidagi axloqiy kamolot o‘rtasidagi izchillikni pedagogik jarayon doirasida tahlil qiling. | Sinfda o‘zaro hurmatsizlik kuzatilsa, Yusuf Xos Hojibning til odobi va Navoiyning inson qadr-qimmati g‘oyalaridan foydalanib pedagogik ta’sir rejasini asoslang. |
| **14** | Sharq uyg‘onishi mutafakkirlari talqinida komil shaxsning asosiy qadriyatlarini sanang. (ilm, axloq, adolat, insonparvarlik) | Alisher Navoiy inson qadr-qimmatini qaysi ma’naviy mezonlar bilan bog‘laganini izohlang. (axloqiy kamolot, or-nomus, jamiyatga foyda) | Xorazmiy va Ulug‘bek an’analarida ilmiy tafakkurning ta’limiy qadriyatga aylanishini izohlang. (izchillik, ilmiy bilim, jamiyat ravnaqi) | Tasavvufiy merosdagi o‘z-o‘zini nazorat qilish g‘oyasini zamonaviy refleksiv ta’lim bilan bog‘lashning imkoniyatlari hamda metodik cheklovlarini baholang. | Sharq mutafakkirlari merosiga bag‘ishlangan mashg‘ulotda tarixiy bilimni axloqiy tanlov bilan bog‘lash uchun qadriyatli maqsad, faoliyat va refleksiya bosqichlarini loyihalang. |
| **15** | Jadid ma’rifatparvarligi ta’limga qanday qadriyatli maqsad yuklagan? (ma’rifat, millat ravnaqi, shaxs kamoloti) | Yusuf Xos Hojib merosida adolat, aql va til odobining komil inson tarbiyasidagi o‘rnini tushuntiring. (Qutadg‘u bilig, mas’uliyat, baxt-saodat) | Jadid pedagogikasi va zamonaviy aksiologik yondashuvning qadriyatlarga yo‘naltirilgan ta’lim haqidagi qarashlarini taqqoslang. (ma’rifat, ijtimoiy taraqqiyot, shaxs subyektligi) | Jadid ma’rifatparvarligidagi milliy taraqqiyot g‘oyasi va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligini zamonaviy ta’lim maqsadlari asosida tahlil qiling. | An’anaviy merosni o‘rganishda talabalar tayyor xulosalarni yodlaydi, ammo mustaqil baholamaydi. Jadid ma’rifati va zamonaviy aksiologik paradigma asosida mashg‘ulot ishlanmasini tuzing. |
| **16** | Pedagogning kasbiy qadriyatlari tushunchasini ta’riflang. (kasbiy maqsad, ideal, me’yor, munosabat) | Kasbiy qadriyatlarning yo‘naltiruvchi, tartibga soluvchi va birlashtiruvchi vazifalarini izohlang. (kasbiy maqsad, axloqiy me’yor, yaxlit faoliyat) | Kasbiy aksiologik kompetensiyaning kognitiv, motivatsion-qadriyatli va amaliy-refleksiv komponentlarini tizimli tavsiflang. (kasbiy bilim, ichki ishonch, refleksiv qaror) | Talabaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va akademik talabni bir xil qo‘llash o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelsa, pedagogik adolat konsepsiyasi asosida qanday muvozanat o‘rnatish mumkinligini tahlil qiling. | Iqtidorli magistr ishini belgilangan muddatdan kech topshirdi, lekin mazmuni yuqori sifatli. Tenglik, insonparvarlik va shaffoflikni uyg‘unlashtirgan baholash qarorini ishlab chiqing. |
| **17** | Aksiologik kompetensiya deganda nima tushuniladi? (qadriyatni anglash, baholash, axloqiy qaror) | Aksiologik ustanovka va qadriyatli yo‘nalganlikning farqini pedagogik faoliyat misolida tushuntiring. (ichki tayyorlik, ehtiyoj, qaror) | Pedagogning kasbiy pozitsiyasini tashkil qiluvchi guruhlarni izohlang. (ijtimoiy-siyosiy, intellektual, axloqiy, kasbiy-pedagogik) | Pedagog kasbiy etika haqida mukammal bilimga ega, ammo baholashda shaxsiy simpatiyaga tayanadi. Bu holatni aksiologik kompetensiya komponentlari va indikatorlari asosida baholang. | Talaba seminar vaqtida o‘qituvchi fikriga ilmiy asoslangan e’tiroz bildirdi. Pedagog obro‘si va akademik erkinlikni saqlaydigan muloqot strategiyasini loyihalang. |
| **18** | Aksiologik ong, munosabat va xulq-atvor uchligining elementlarini ayting. (bilim, hissiy baholash, xatti-harakat) | Pedagogning kasbiy «Men»i bilan shaxsiy manfaatlari o‘rtasidagi uyg‘unlik nima uchun zarurligini izohlang. (pedagogik missiya, mas’uliyat, ta’lim oluvchi farovonligi) | Maqsadli, vositali va munosabatli qadriyatlar kasbiy qaror qabul qilishga qanday ta’sir qilishini tushuntiring. (maqsad, metod, muloqot) | Pedagogning kasbiy obro‘sini himoya qilish istagi bilan talabaning ilmiy asosli e’tiroz bildirish huquqi to‘qnashganda qadriyatlar ierarxiyasi qanday ishlashini dalillang. | Baholashda ayrim talabalarga asossiz imtiyoz berilayotgani aniqlandi. Aksiologik kompetensiya indikatorlariga tayangan holda adolatni tiklash va xatoni refleksiv tuzatish rejasini tuzing. |
| **19** | Pedagogning kasbiy etikasiga asos bo‘ladigan uchta tayanch qadriyatni sanang. (insonparvarlik, adolat, mas’uliyat) | Kasbiy qadriyatlar ierarxiyasida oliy maqsad, ustuvor mezon va faoliyat vositalari qanday bog‘langanini tushuntiring. (shaxs rivoji, qadr-qimmat, didaktika) | Pedagogik qaror qabul qilishda adolatlilik, insonparvarlik va mas’uliyat mezonlarining o‘zaro bog‘liqligini asoslang. (xolis baholash, individual yondashuv, oqibat) | Raqamli ta’limda talaba ma’lumotlarining maxfiyligi va akademik ochiqlik o‘rtasidagi chegarani kasbiy qadriyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qiling. | Raqamli topshiriqni tekshirishda sun’iy intellekt vositasi talaba ishini noto‘g‘ri baholagan bo‘lishi mumkin. Akademik halollik, shaffoflik va mas’uliyat nuqtayi nazaridan pedagogik harakatlar ketma-ketligini asoslang. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **20** | Pedagogning shaxsiy va kasbiy «Men»i qanday tushunchalarni ifodalaydi? (o‘zini anglash, pedagogik missiya, kasbiy pozitsiya) | Aksiologik kompetensiyaning bilim, baholash va xulq indikatorlari qanday amaliy holatlarda namoyon bo‘lishini tushuntiring. (bilim, manfaatlar to‘qnashuvi, adolatli qaror) | Kasbiy aksiologik kompetensiyani rivojlantirishda vaziyat tahlili, mentorlik va refleksiyaning vazifalarini ochib bering. (axloqiy dilemma, amaliy kuzatuv, qadriyatlar kundaligi) | Pedagogning shaxsiy rivojlanish ehtiyoji va o‘quvchi manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashning kasbiy-aksiologik mezonlarini asoslang. | Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kasbiy dilemmalar tahlili, mentorlik va qadriyatlar kundaligini qamrab olgan aksiologik kompetensiyani rivojlantirish dasturini ishlab chiqing. |
| **21** | Zamonaviy ta’limda aksiologik yondashuvning asosiy mohiyatini ayting. (bilim, munosabat, mas’uliyat) | Nima uchun qadriyatning barqaror shakllanishi faqat tushuntirishga emas, shaxsiy tajribaga ham bog‘liqligini izohlang. (namuna, ongli tanlov, xulq-atvor) | Aksiologik ta’lim texnologiyasida diagnostika, maqsadlashtirish, faol tajriba va refleksiya bosqichlarining o‘zaro bog‘liq vazifalarini yoritib bering. (dastlabki holat, qadriyatli maqsad, faoliyat, tahlil) | Aksiologik ta’lim texnologiyasida faol tajriba bosqichi refleksiya bilan yakunlanmasa, qadriyatning ichkilashtirilishi va xulqqa ko‘chishida qanday cheklovlar yuz berishini tahlil qiling. | Talabalarda o‘zaro hurmatni rivojlantirish uchun diagnostika, qadriyatli maqsad, guruhiy faoliyat va refleksiyadan iborat aksiologik mashg‘ulot loyihasini ishlab chiqing. |
| **22** | Insonparvarlik va inklyuzivlik tamoyillarini ta’riflang. (shaxs qadr-qimmati, adolatli ishtirok, hurmat) | Inklyuziv ta’lim sharoitida bir xil talab qo‘yish va adolatli ishtirokni ta’minlash o‘rtasidagi farqni tushuntiring. (individual imkoniyat, xolislik, qo‘llab-quvvatlash) | Qadriyatli rivojlanishni baholashning bilish, asoslash, ishtirok va refleksiya mezonlarini izohlang. (tushuncha, dalillash, hamkorlik, o‘zini tahlil qilish) | Inklyuzivlik va baholashdagi xolislik tamoyillarini uyg‘unlashtirishda bir xil sharoit yaratish bilan ehtiyojga mos sharoit yaratishning farqini asoslang. | Inklyuziv guruhda bir necha talaba muhokamalarda ishtirok etmayapti. Hurmat, individual imkoniyat va adolat mezonlariga asoslangan faol ishtirok strategiyasini asoslang. |
| **23** | Qadriyatni o‘zlashtirish jarayonining uch asosiy bosqichini sanang. (tushunish, qabul qilish, amal qilish) | Qadriyatlarni shakllantirishda dalilli muloqot va hamkorlikning tarbiyaviy ahamiyatini izohlang. (turli fikr, tinglash, hurmat) | | Qadriyatlarni shakllantirish treninglarida shaxsiy tajribani oshkor etish ishtirokchining qadr-qimmati va xavfsizligiga qanday xavf tug‘dirishi mumkinligini tahlil qiling. | O‘qituvchi yuqori o‘quv natijasiga erishish uchun o‘quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatini cheklovchi usulni tanladi. Mazkur qadriyatli ziddiyatni baholang, muqobil pedagogik vositalarni taklif qiling va eng maqbul qarorni mezonlar asosida himoya qiling. |
| **24** | Aksiologik ta’lim texnologiyasining to‘rtta bosqichini ayting. (diagnostika, maqsadlashtirish, faol tajriba, refleksiya) | Aksiologik darsda diagnostika natijalarini maqsadlashtirish va faol tajribaga qanday bog‘lash mumkinligini tushuntiring. (dastlabki qarashlar, kuzatiladigan natija, loyiha) | | Sun’iy intellekt yordamida o‘quv ishlarini tayyorlash va baholashda raqamli etika hamda akademik halollik mezonlarini qiyosiy baholang. | Raqamli dars loyihasida noto‘g‘ri axborot va sun’iy intellekt yaratgan tekshirilmagan javoblar tarqalmoqda. Media savodxonlik, mualliflik va refleksiyani uyg‘unlashtirgan o‘quv faoliyatini ishlab chiqing. |
| **25** | Raqamli ta’limdagi aksiologik mezonlarni sanang. (maxfiylik, mualliflik, media savodxonlik, mas’uliyat) | Qadriyatlarga oid baholashda bilimni aniqlash va shaxsni tamg‘alash o‘rtasidagi prinsipial farqni tushuntiring. (rivojlanishni kuzatish, xolislik, refleksiya) | Raqamli muhitda axborotni tanqidiy tekshirish, mualliflikka rioya qilish va sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish talablari mazmunini ochib bering. (media savodxonlik, manba, natijani tekshirish) | UNESCO ta’kidlagan inson qadr-qimmati, hamjihatlik va barqarorlik qadriyatlarini darsning mazmuni, faoliyati va baholashiga uyg‘un kiritishning metodologik asoslarini tahlil qiling. | Qadriyatli tarbiya natijalarini bir martalik so‘rov asosida baholash taklif etildi. Bilish, asoslash, ishtirok va refleksiya indikatorlariga tayangan holda ko‘p manbali baholash rejasini yarating. |